



UDK: 070:81'42

**Yulduz ZOHIDOVA,**  
*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti*  
*"Xalqaro va audiovizual jurnalistika" kafedrasi dotsenti, PhD*  
*E-mail: yulduz.zohidova83@mail.ru,*

*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti dotsenti, PhD Q. Qayumov taqrizi asosida*

### TELEBOSHLOVCHINING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGI: VERBAL VA NOVERBAL MULOQOTNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada teleboshlovchining kommunikativ kompetentligi masalasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda teleboshlovchining nutq madaniyati, auditoriya bilan samarali muloqot o'rnatish qobiliyati hamda axborotni aniq va ta'sirchan shaklda yetkazish malakasi kommunikativ kompetentlikning muhim tarkibiy qismlari sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, telekommunikatsiya jarayonida verbal va noverbal kommunikatsiya vositalari – mimika, imo-ishoralar, intonatsiya, proksemika va paralingvistik elementlarning ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Maqolada teleboshlovchi nutqida adabiy til me'yorlariga rioya qilish, ona tilining sofligini saqlash hamda kommunikativ kompetentlikni doimiy ravishda rivojlantirib borish zarurligi ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** teleboshlovchi, kommunikativ kompetentlik, nutq madaniyati, verbal kommunikatsiya, noverbal kommunikatsiya, paralingvistika, proksemika, media kommunikatsiya.

### COMMUNICATIVE COMPETENCE OF A TV ANCHOR: THEORETICAL FOUNDATIONS OF VERBAL AND NONVERBAL COMMUNICATION

Annotation

The article analyzes the theoretical and practical aspects of communicative competence of TV presenters. The study considers speech culture, the ability to establish effective communication with the audience, and the skill of delivering information clearly and persuasively as the main components of communicative competence. Special attention is paid to the role of verbal and nonverbal means of communication such as facial expressions, gestures, intonation, proxemics, and paralinguistic elements in the process of television communication. The article also emphasizes the importance of maintaining the purity of the native language, observing literary language norms, and continuously developing communicative competence in journalistic practice.

**Keywords:** TV presenter, communicative competence, speech culture, verbal communication, nonverbal communication, paralinguistics, proxemics, media communication.

### КОММУНИКАТИВНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ ТЕЛЕВЕДУЩЕГО: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВЕРБАЛЬНОГО И НЕВЕРБАЛЬНОГО ОБЩЕНИЯ

Аннотация

В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты коммуникативной компетентности телеведущего. В исследовании речевая культура, способность устанавливать эффективное взаимодействие с аудиторией и умение ясно и выразительно передавать информацию рассматриваются как основные компоненты коммуникативной компетентности. Особое внимание уделяется роли вербальных и невербальных средств коммуникации, включая мимику, жесты, интонацию, проксемику и паралингвистические элементы в процессе телевизионного общения. В статье также подчеркивается необходимость соблюдения норм литературного языка, сохранения чистоты родного языка и постоянного совершенствования коммуникативной компетентности журналистов.

**Ключевые слова:** телеведущий, коммуникативная компетентность, культура речи, вербальная коммуникация, невербальная коммуникация, паралингвистика, проксемика, медиакommunikация.

**Kirish.** Telejurnalistika zamonaviy ommaviy kommunikatsiya tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, unda axborotni samarali yetkazish ko'p jihatdan teleboshlovchining kommunikativ kompetentligiga bog'liq. Kommunikativ kompetentlik teleboshlovchining nutq madaniyati, auditoriya bilan muloqot o'rnatish qobiliyati, axborotni tushunarli va ta'sirchan shaklda yetkazish malakasini o'z ichiga oladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yuqori darajadagi kommunikativ kompetentlik teleboshlovchilarning nutq madaniyatini oshiradi, auditoriya bilan samarali muloqot o'rnatishga yordam beradi va kasbiy samaradorlikni kuchaytiradi. Noverbal vositalarning to'g'ri qo'llanishi va

paralingvistik elementlarning nazorati tomoshabinlar tomonidan xabarning to'liq va adekvat qabul qilinishini ta'minlaydi. Kommunikativ kompetentligi yetarli darajada shakllanmagan teleboshlovchilar esa noto'g'ri xabar yetkazilishi, auditoriya e'tiborining pasayishi va professional samaradorlikning kamayishiga olib keladi[1].

Aytish joizki, bugun tomoshabinning televizor tomosha qilishdan chetlashish sabablaridan biri kasbiy mahoratga ega bo'lmagan, efir madaniyati talablariga javob bermaydigan boshlovchilarning ko'payib borayotganidir. So'nggi 15 yil ichida televideniya muloqot konfiguratsiyasi tubdan o'zgardi. Ilgari til va kommunikativ me'yorlarga qat'iy

muvoqiq ravishda tayyorlangan rasmiy muloqot o'rmini tobora ko'proq tayyorlanmagan, aniq va tabiiy muloqot egallamoqda. Rasmiy va norasmiy ijtimoiy muloqot o'rtasidagi keskin chegara asta-sekin yo'qolib borayapti. Televizion muloqotda norasmiylik darajasi ortib, teleboshlovchilar nutqida ko'proq so'zlashuv uslubiga xos, stilistika jihatdan so'zlamning noto'g'ri qo'llanilish holatlari uchramoqda.[2]

Teleboshlovchi nutqida til me'yorlarining buzilishi muntazam ravishda takrorlanib borar ekan, u asta-sekin o'zgargan umumadabiy me'yor sifatida qabul qilinishi va unga amal qilish zarur degan tasavvurning shakllanishiga olib kelishi mumkin. Shu bois ona tilining sofliğini saqlash va adabiy til me'yorlariga rioya etish masalasi umumiy nutq madaniyati darajasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu boradagi yuksak mas'uliyat, tabiiy ravishda, ommaviy axborot vositalari vakillari, xususan jurnalistlar zimmasiga yuklanadi. Bundan tashqari, teleboshlovchining kommunikativ kompetensiyasi past bo'lishi axborotni tushunishni jiddiy qiyinlashtirishi yoki voqelik haqida noto'g'ri tasavvur hosil qilishi mumkin. Ayni holatlar ommaviy axborot vositalari xodimlariga o'zbek tilini puxta egallash borasida yetarlicha yuqori talablar qo'yilishi zarurligini taqozo etadi. Agar teleboshlovchi yuksak nutq madaniyatiga ega bo'lib, nutqiy muloqotning asosiy tamoyillari va kommunikativ me'yorlarni chuqur o'zlashtirgan bo'lsa, u o'z kasbiy vazifalarini muvaffaqiyatli bajaradi, ya'ni professional jihatdan kompetent hisoblanadi.

Nutq madaniyatini doimiy ravishda takomillashtirib borish, o'z lingvistik bilimlarini qo'llab-quvvatlash va yangilash, shuningdek, V. G. Kostomarovning o'rinni ta'biri bilan aytganda, «davrnin til zavqi»ni shakllantirish zarurati bugungi kunda ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yakkafikrlilik, bir xillik, rasmiyatchilik, oldindan qat'iy belgilangan qoliqlar majmuasidan voz kechishga bo'lgan intilishni faqat qo'llab-quvvatlash mumkin. Biroq bunday maqsadga erishishda qo'llaniladigan barcha vositalarni ham maqbul, deb bo'lmaydi[3].

Teleboshlovchining kommunikativ kompetentligi faqat nutq orqali emas, balki imo-ishoralar, mimika, proksemika va paralingvistik vositalar orqali ham aniqlanadi. Noverbal kommunikatsiyaning asosiy shakllari quyidagilar:

Kinetika: imo-ishoralar va pantomima;

Paralingvistik: ovoz sifati, tembr, tonallik;

Proksemika: muloqotning makon va vaqt jihatdan tashkil etilishi;

Vizual muloqot: ko'z bilan aloqa va yuz ifodalari. Shu bilan birga, teleboshlovchining kasbiy mahorati, dunyoqarashi, voqelikni chuqur bilishi, bilim va kommunikativ zahirasini boyitishi ham telekommunikatsiya samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Jurnalistika sohasida kommunikativ kompetentlikni shakllantirish masalasi ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, L. Nahorniuk tomonidan olib borilgan tadqiqotda jurnalistlarning professional ingliz tilidagi kommunikativ kompetentligini ommaviy axborot vositalari orqali rivojlantirish jarayonlari tahlil qilingan[4]. Tadqiqotda media materiallari jurnalistlarning kasbiy til ko'nikmalarini shakllantirishda samarali didaktik vosita sifatida qaraladi. V. Gandziukning "Communicative Competences" nomli maqolasida jurnalistlarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga doir nazariy qarashlar va ilmiy tahlillar keltirilgan[5]. Ushbu tadqiqot kommunikativ kompetentlikni jurnalist kasbiy mahoratining muhim tarkibiy qismi sifatida baholaydi. Jurnalistika ta'limida nutq kompetentligini shakllantirish masalalari "Formation of Speech Competence Skills of Journalist" nomli ilmiy ishda tahlil qilingan bo'lib, unda nutq madaniyati va kommunikativ ko'nikmalarni

rivojlantirishning metodologik jihatlarini yoritilgan[6]. P. Katerynychning "Professional Competencies of a Modern Education Journalist" nomli maqolasida zamonaviy jurnalistning kasbiy kompetensiyalari tizimi, jumladan, kommunikativ, axboriy va tahliliy kompetensiyalar ilmiy jihatdan asoslab berilgan[7]. Ommaviy axborot vositalarining kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishdagi o'rni R. Abilasha va M. Pankumaran tomonidan olib borilgan tadqiqotda keng yoritilgan[8].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda telejurnalistika sohasida teleboshlovchining kommunikativ kompetentligini o'rganish uchun qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, jurnalistik tadqiqotlar hamda kommunikatsiya nazariyalarini o'rganish orqali nazariy tahlil usuli qo'llanildi. Shuningdek, telejurnalistika amaliyotida kommunikativ kompetentlikning namoyon bo'lish xususiyatlarini aniqlash maqsadida tahliliy va qiyosiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida teleboshlovchining verbal va noverbal kommunikatsiya vositalaridan foydalanish xususiyatlarini deskriptiv (tasviriy) tahlil asosida ko'rib chiqildi. Bundan tashqari, telekommunikatsiya jarayonida nutq madaniyati, paralingvistik elementlar va vizual kommunikatsiya vositalarining auditoriyaga ta'siri kommunikativ yondashuv asosida o'rganildi. Mazkur metodlar teleboshlovchining kasbiy mahorati va kommunikativ kompetentligining telekommunikatsiya samaradorligiga ta'sirini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi.

**Tahlil va natijalar.** Televideniye nuqtai nazaridan kommunikativlik turli maqomdagi insonlar bilan samarali muloqot qilish, aloqa o'rnatish, axborotni qabul qilish, qayta ishlash va uni tomoshabinga yetkazish, matn bilan ishlash, shuningdek, verbal va noverbal ifodaviy vositalarni yuqori darajada qo'llay olish qobiliyatidir. Telekommunikatsiya bilvosita muloqot jarayoni sifatida teleboshlovchi va tomshabin ortasida teng huquqli hamkorlikni nazarda tutadi. Telekommunikatsiyaning samaradorligi teleboshlovchining o'z auditoriyasini qay darajada aniq tasavvur qilishiga, ijodiy rejalarini ularga qarata amalga oshirishiga bog'liq. Teleboshlovchining kasbiy mahorati deganda kommunikativ faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, kommunikativ qobiliyat va shaxsiy tayyorgarlik tushuniladi. Tomshabin bilan chinakam muloqot o'rnatish uchun verbal hamda noverbal kommunikatsiya vositalari birdek muhim. Imo-ishora, ohangning to'g'ri qo'llanishi teleboshlovchi xabariga emotsional rang-baranglik bag'ishlaydi va tomshabinlarni muloqotga jalb etishga xizmat qiladi. Noverbal kommunikatsiya vositalari teleboshlovchi uchun muhim ifodaviy vositalar hisoblansa-da, ular professional yetishmovchilik ko'rsatkichi sifatida ham namoyon bo'lishi mumkin: ortiqcha hayajon yoki ishonchsizlik, ko'z ifodasi, haddan tashqari ko'p yoki, aksincha, cheklangan imo-ishoralar tomshabinni uzoqlashtirib yuborishi ehtimoldan holi emas. Demak, teleboshlovchi va teletomshabin deyarli har doim dialogga kirishadi. Dialog nafaqat fikrlar almashinuvi yoki o'zini tutish taktikasi, balki ruhiy holatlar almashinuvi hamdir. U tinglash istagi bilan so'zlash istagi, tushuntirish istagi bilan anglash istagining navbatma-navbat namoyon bo'lishini ifodalaydi. Agar teleboshlovchi tomshabinlarda uzoq muddatli «kommunikativ zavq» va hamdardlik holatini yuzaga keltira olsa, bu holatni «kommunikativ hodisa», ya'ni muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat uchun asos sifatida baholash mumkin.

Kommunikativ kompetentlik umumiy madaniyatni va uning kasbiy faoliyatda namoyon bo'ladigan muayyan ko'rinishlarini o'zida uyg'unlashtirgan yagona sifat hisoblanadi. Kommunikativ kompetentlikning muhim

tavsiflaridan biri belgilangan qoidalar va talablarga amal qilishdir. Umumiy qoida shundan iboratki, fikrni yetkazuvchining o'zi tushunmasdan yoki to'liq tushunmasdan turib, uni tinglovchiga yetkazishga kirishmaslik lozim. Ushbu qoidalar ichida eng ahamiyatlilari quyidagilardan iborat:

«Tushunishga doimiy tayyorlik» qoidasi. Muloqot jarayonida semantik va shaxsiy xususiyatga ega bo'lgan juda ko'p to'siqlar mavjud bo'lib, ular ko'pincha xabarlarni noto'g'ri anglashga olib keladi.

Aniqlik qoidasi. Muloqotda noaniq, ikki ma'noli, mavhum ibora va so'zlardan qochish, zarurat bo'lmagan hollarda esa notanish yoki murakkab terminlardan foydalanmaslik talab etiladi.

Noverbal belgilarni nazorat qilish qoidasi. Faqat nutq va bayon etilayotgan mazmunni nazorat qilishning o'zi yetarli emas; mimika, jestlar, intonatsiya, tana holati kabi tashqi ko'rinish ham albatta nazorat qilinishi shart.

«O'z nuqtai nazarining xatoligi ehtimoli» qoidasi. Kommunikativ faoliyat jarayonida inson o'z fikri noto'g'ri bo'lishi mumkinligini tan olishi lozim. Bu qoida ko'p hollarda jiddiy xatolardan saqlanishga yordam beradi.

«Joy va vaqt» qoidasi. Har qanday xabarning ta'sirchanligi uning o'z vaqtida yetkazilishi va eng maqbul hamda muvofiq kommunikativ vaziyatda amalga oshirilishi natijasida keskin oshadi.

Ochiqlik qoidasi yangi holatlar ta'sirida o'z nuqtai nazarini qayta ko'rib chiqishga tayyorgarlikni, shuningdek, suhbatdoshning fikrini qabul qilish va hisobga olish qobiliyatini anglatadi.

Faol va konstruktiv tinglash qoidasi samarali kommunikatsiyani ta'minlovchi asosiy shartlardan biri hisoblanadi.

Qayta aloqa qoidasi. Aynan ushbu qoida kommunikativ jarayonning asosiy maqsadi o'zaro tushunishga erishishni ta'minlaydi[9].

Muloqot vositasi sifatida nutq bir vaqtning o'zida ham axborot manbai, ham suhbatdoshga ta'sir ko'rsatish usuli bo'lib xizmat qiladi. O'zaro ta'sir jarayonini to'liq anglash uchun faqat kommunikativ aktning tuzilishini bilishning o'zi yetarli emas; balki muloqot ishtirokchilarining motivlari, maqsadlari va munosabatlarini ham tahlil qilish zarur. Bu esa nutq bilan bir qatorda muloqotga jalb etilgan boshqa belgilar tizimlarini ham o'rganishni talab qiladi. Bular orasida birinchisi imo-ishoralar, yuz ifodalari va pantomimalarni o'z ichiga olgan optik-kinetik ishora tizimidir. Insonning ko'zlari, qarashi va yuzi aylantirilgan so'zlardan ko'ra ko'proq ma'noni ifodalab berishi

mumkin. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mimik ifodalar orqali axborotning 70 foizdan ortig'i uzatiladi. Ayniqsa, insonning haqiqiy his-tuyg'ularini anglashda qoshlar va lablar muhim rol o'ynaydi[10].

Proksemika muloqotning makon va vaqt jihatdan tashkil etilishini o'rganuvchi maxsus soha sifatida bugungi kunda katta eksperimental materiallarga ega. Ushbu yo'nalishdagi qator tadqiqotlar kommunikativ vaziyatlarning makon va vaqtga oid barqaror ko'rsatkichlari majmuasini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, ular «xronotoplar» deb ataladi. Kommunikativ jarayonda qo'llaniladigan yana bir belgilar tizimi vizual muloqotda yuzaga keladigan «ko'z bilan aloqa»dir. Bir qarashda ko'z bilan aloqaning belgilar tizimi sifatidagi ahamiyati cheklanganday tuyulishi mumkin. Ammo ingliz tadqiqotchisi M. Argayl va uning hamkasblari «yaqinlik formulasi»ni ishlab chiqib, muloqotdagi yaqinlik suhbat masofasi va ko'z qarashlari bilan bog'liq ekanini isbotladilar[11]. Hozirgi kunda esa bunday tadqiqotlar doirasi ancha kengaygan: ko'z harakatlari orqali ifodalanadigan belgilar muloqotning yanada keng turdagi vaziyatlariga kiritilmoqda. Shu tariqa kommunikatsiyani muvaffaqiyatini ta'minlovchi asosiy shartlardan biri jurnalistning dunyoqarash jihatdan yetukligi, voqelikni chuqur bilishi, kasbiy va kommunikativ kompetensiyasini oshirib borishidir. Keng eruditsiyasiz yangi taassurotlarga yo'nalish olish qiyin yoki deyarli imkonsiz. Telejurnalist o'z bilimlarini muntazam ravishda kengaytirib borgan holda, ma'lumotlarni to'plash bilan cheklanib qolmaydi, balki o'zining kommunikativ zahirasini izchil ravishda boyitadi.

**Xulosa.** Teleboshlovchining nutq madaniyati, til me'yorlariga rioya qilishi hamda verbal va noverbal kommunikatsiya vositalaridan to'g'ri foydalanishi telekommunikatsiya samaradorligini belgilaydi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, mimika, imo-ishora, intonatsiya, ovoz tembr va ko'z bilan aloqa kabi noverbal vositalar teleboshlovchi nutqining ta'sirchanligini oshiradi va tomoshabin bilan psixologik yaqinlikni shakllantiradi. Biroq bu vositalardan noto'g'ri foydalanish kommunikativ to'siqlarni yuzaga keltirishi ham mumkin. Shu bois teleboshlovchilar kasbiy faoliyatida nutq madaniyatini takomillashtirib borish, kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish, adabiy til me'yorlariga rioya qilish va media muloqotining zamonaviy talablarini chuqur o'zlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa nafaqat telekommunikatsiya samaradorligini oshiradi, balki jamiyatning umumiy nutqiy va madaniy saviyasini yuksaltirishga ham xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing // Applied Linguistics. – 1980. – Vol. 1(1). – P. 1–47.
2. Argyle M. Bodily Communication. – London: Routledge, 1988. – 363 p.
3. Zohidova Y. Kommunikativ kompetentlik teleboshlovchi kasbiy mahoratining asosiy omili sifatida // Ilm-fan elektron jurnal, 2026.
4. Kostomarov V. G. Языковой вкус эпохи: из наблюдений над речевой практикой масс-медиа. – Москва: Педагогика-Пресс, 1994. – 247 с.
5. Nahorniuk L. Development of Journalists' Professional English Communicative Competence Using Mass Media // Scientific Journal. – 2020.
6. Gandziuk V. Communicative Competences // Scientific Bulletin. – 2019.
7. Formation of Speech Competence Skills of Journalist // Journal of Journalism Studies. – 2021.
8. Katerynych P. Professional Competencies of a Modern Education Journalist // Media Education. – 2021. – Vol. 17, №2. – P. 267–276.
9. Abilasha R., Ilankumaran M. The Role of Media in Enhancing Communicative Competence of the Learners at Tertiary Level // International Journal of Engineering & Technology. – 2018. – Vol. 7, №4. – P. 655–659.
10. Ekman P., Friesen W. V. The Facial Action Coding System: A Technique for the Measurement of Facial Movement. – Palo Alto: Consulting Psychologists Press, 1978. – 132 p.
11. Argyle M., Dean J. Eye-Contact, Distance and Affiliation // Sociometry. — 1965. — Vol. 28, No. 3. — P. 289–304.